



UDK:81/82

O'ktam ABDINAZAROV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi
E-mail: abdinazarov@mail.ru

P.f.n., professor S.Aliqulov taqrizi asosida

EMERGENCE STAGES AND DERIVATIVE CHARACTERISTICS OF HIPPOLOGICAL TERMS USED IN THE FIELD OF HOLIDAYS IN UZBEKI

Annotation

In this article, thoughts and opinions about the emergence, formation, study and lexicographical analysis of the terms related to hunting in the Uzbek language are highlighted, terms related to the field are analyzed.

Key words: Hippologic, argumoq, chura bedov, duldul, yabi, partal, chobir, pocket, jugruk horse.

ЭТАПЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ПРОИЗВОДНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ИППОЛОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В СФЕРЕ ПРАЗДНИКОВ В УЗБЕКИ

Аннотация

В данной статье освещены мысли и мнения по поводу возникновения, формирования, изучения и лексикографического анализа терминов, связанных с охотой, в узбекском языке, анализируются термины, относящиеся к данной сфере.

Ключевые слова: Иппология, аргунок, чурра бедов, дулдул, яби, партал, чобир, карман, джугрук конь.

O'ZBEK TILIDA YILQICHILIK SOHASIDA QO'LLANADIGAN GIPPOLOGIK TERMINLARNING VUJUDGA KELISH BOSQICHLARI VA DERIVATSION O'ZIGA XOSLIKLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilida yilqichilikka oid terminlarning vujudga kelishi, shakllanishi, o'rganilishi va lug'atshunoslikdagi tahlili haqida fikr va mulohazalar yoritilgan, sohaga oid terminlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Gippologik, arg'umoq, churra bedov, duldul, yabi, partal, cho'bir, cho'ntoq, jugruk ot.

Tilning tarixiy taraqqiyoti to'g'risida so'z borganda umumxalq tili va adabiy til tushunchalari amal qiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g'oyaga ko'ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e'tirof etilsa, ikkinchi ta'limotga muvofiq u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratiladi, "alohida turuvchi" obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so'zlashuv)ga tenglashtiriladi.

Onomastika (onomastike - nomlash, nom qo'yish san'ati) - barcha atoqli nomlar yig'indisi, tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning o'zgarish tarixini, shuningdek, paydo bo'lishini o'rganuvchi bo'lim hisoblanadi. Ayrim tadqiqotlarda Onomastika termini antroponomika ma'nosida ham qo'llangan. Onomastika mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Onomastika atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga muvofiq quyidagi bo'limlardan iborat: antroponomika - kishilarning atoqli nomlarini; toponomika - geografik joy nomlarini; teonimika - turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlarini; zoonimika - hayvonlarga qo'yilgan (shartli) atoqli nomlarni; kosmonimika - fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlarini; astronomika - ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar)ning nomlarini o'rganadi. Turkiy tillarning umumtaraqqiyot davridagi leksik xususiyatlar, ayniqsa, zoonimlar tarkibida saqlanib qolgan. Hayvon nomlari turkiy tillarning leksik taraqqiyoti, so'zlarning funksional semantik xususiyatlari, tushuncha ifodalovchi nom sifatida shakllanishi haqida qimmatli va muhim ma'lumot beradi. Bugungi kunda lingvokulturologiya, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika va boshqa yo'nalishlar doirasida zoonimlar tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlar olib borilayotgan bo'lib, ular zoologik terminlar misolida muayyan xalqqa xos xususiyatlarni o'rganishga xizmat qiladi. Turkiy tillarda ham hayvon nomlari bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari ham mavjud. Zoonimlar tadqiqi dastlab, Mahmud Koshg'ariydan boshlangan. Devonda

400 ga yaqin zoonimlar lug'ati keltirilgan bo'lib, jumladan 100dan ortiq qush nomi qayd etilgan. "Devonu lug'otit turk" asarida turli sohalarga doir so'zlar bilan bir qatorda zoonimlar ham ifodalangan. Ma'lumki, zoonim yunoncha so'z bo'lib, hayvon nomlari bilan bog'liq so'zlar ma'nosini ifodalaydi. "Devon"dagi zoonimlarni hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtayi nazardan ikkita guruhga ajratish mumkin: hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan qadimgi turkiy zoonimlar va hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydigan qadimgi turkiy zoonimlar. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan qadimgi turkiy zoonimlar jumlasiga echku (echki), tuya, ayig', it, ilon, qo'y kabilarni aytib o'tish mumkin. Ushbu so'zlarning til va lahjalarda turlicha ifodalanishini olim aniq ko'rsatib o'tadi. Turkiy tillardagi zoonimlarning leksik-grammatik xususiyatlari tadqiq qilingan. Xonaki hayvonlar leksikasini aks ettiruvchi chorvachilik, ovchilik terminlari o'rganilgan. Turkiy tillar leksikasi tadqiqi zoonimlar tahlili misolida olib borilgan. O'zbek tilidagi "hayvon" arxisemali so'zlar semantik maydon asosida tasniflangan.

Eski o'zbek tili davriga kelib yangi zoonimlar shakllana boshladi: topchoq/tupchaq "chopqir ot"; kokavyan "so'na". Topchaq zoonimi ma'nosida qadimgi manbalarda agyatad so'zi qayd etilgan. Bu so'z hozirgi qirg'iz va tuva tillarida keng qo'llanadigan "katta tezlikda yugurmoq" ma'nosidagi argi= / / argu= fe'l asosidan shakllangan. Hozirgi qozoq tili dialektlarida tobisraq "arg'umoq zotiga mansub uchqur ot"; qirg'iz tilida toburcak "yaxshi, katta tulpor, jangovar ot" ma'nolarida qo'llanadi. Manbalarda tobicag "g'arbiy mamlakatlarga xos ot"; topcaq at "arabi ot" ma'nolarida ham ishlatilgan. Quyida birgina ot uvadoshligiga mansub so'zlarning turkiy tillardagi shakllari va ma'nolari borasida fikr yuritiladi. At (at) "ot", mo'g'ul mori(n); manchj. morin; tung. morin, murin, murgan, murgon, xelge; hozirgi turkiy tillarda at, merina - ayg'ir, yoq. emak (ot); turkman tilida col ati (cho'l oti), ala-bula at "ola ot". At (at) turkiy tillarda unli harflari bilan farqlanadi. Ozarbayjon, oltoy, balqar, boshqird, gagauz, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, qumiq, no'g'ay, tatar, turk, turkman, uyg'ur, xakas, yoqut tillarida - at, tuva tilida a't; o'zbek tilida of, chuvash tilida ul: At so'zidan tashqari turkiy tillarda "ot" (hayvon) ma'nosida beygir "ayg'ir", lasa jilki "yilki" va yont

“yond” soʻzlari ham qoʻllanadi. Oʻgʻuz tilidagi baytal va biya soʻzlari “urgʻochi ot” maʼnosini bildiradi. Qisra qoonimi oʻzbek tili shevalari, ozarbayjon tili va bir qator turkiy tillar shevalarida kuzatiladi. Qisra q soʻzining tuzilishi ikkita qismdan iborat: qsr / qisir va aq. Bu soʻz nafaqat ot, balki boshqa hayvonlarni ham bildiradi. Masalan, ozarb., turkm. gisir ; boshqa qozoq, tatar, oʻzbek tillarida qisir; xakas tilida xizir; chuvash xiser, gagauz tilida kisir; noʻgʻay tilida kisir; qisir/qisra q “qisir” shaklida qoʻllaniladi. Qulun, tan “toychoq” - moʻgʻ. unaga(n), manchj., unaxan; tung. marikan, cader, muron , xnten, muran, enkecenni. Qulun, tay soʻzlari turkiy tillarda, umuman, har xil yoshdagi otlar guruhini anglatadi, hozirgi turk tilida umumiy holda “toychoq” maʼnosini bildiradi. Bu soʻz turkiy tillarda har xil fonetik koʻrinishlarda uchraydi. Masalan, ozarb. gay, gayca, gulun; boshq., gag., q.-qalp., qum., turk, turkm. tay, taycik, kolin; oʻzb. qulun, toy; uygʻ. tay taycak, chuv. tixa. xulun. Qulun (qulunak, quluncak, qulunagas) “bir yil lik toychoq” kabi maʼnolarni ifodalaydi. Qadimgi turkiy tilda yosh otlar taycaq va qulun zoonimi bilan nomlangan. Koʻpincha toy soʻzi bilan yoshi katta ot guruhlari atalgan. Hozirgi oʻzbek tilida toy uch yoshgacha boʻlgan barcha otlarga, toychoq bir yoshgacha boʻlgan otlarga nisbatan ishlatiladi. Turkiy tillardagi ayrim zoonimlar taraqqiyotida funksional-semantik oʻzgarishlar kuzatiladi. Masalan, yilqi Mahmud Koshgʻariy “Devon”da “hayvonlar toʻdasi” maʼnosida izohlangan. “Boburnoma”da “otlar toʻdasi” maʼnosini bildirgan. Yilki terminining etimologiyasi (“yigʻmoq”, “birlashtirmoq” soʻzidan - G.Vamberi) ham soʻz semantikasidagi umumlashtiruvchi semaga asoslanadi. Yilqi “bir joyga toʻpla” maʼnosidagi yil- feʼlidan -qi affiksini qoʻshish orqali yasalgan(yil+qi= yilqi). Bu aslida “keng oʻtloqda erkin harakatlanib yuruvchi hayvonlar toʻdasi”ni anglatgan. Eng qadimgi manbalarda, asosan, “qoramol” tushunchasini ifodalagan. Hozirda soʻz semantik strukturasi maʼno torayishi yuz bergan, faqat “otlar toʻdasi” maʼnosi anglashiladi. Soʻzlashuv uslubida metonimiya asosidagi maʼno koʻchishi natijasida “ot” tushunchasini ham bildiradi. Hozirgi turkiy tillarda ozarbayjon ilgi; tuva, xakas tilida cilgi “hali yugurtirilgan ot” soʻzlari uchraydi.

Chorvachilik, ovchilik turkiy xalqlarda eng qadimiy soha hisoblanadi. Ayni paytda ular uchun hunarmandchilik, dehqonchilik kabi sohalor ham begona boʻlmagan. Turkiy tillarning umumtaraqqiyot davridagi leksik xususiyatlar, ayniqsa, zoonimlar tarkibida saqlanib qolgan. Hayvon nomlari turkiy tillarning leksik taraqqiyoti, soʻzlarning funkcionalsemantik xususiyatlari, tushuncha ifodalovchi nom sifatida shakllanishi haqida qimmatli va muhim maʼlumot beradi. Bunday maʼlumotlarni koʻplab tilshunoslar nazariyasida koʻrishimiz mumkin. N.Abdurahmonov qadimgi turkiy tilning lugʻaviy qatlamini mavzuviy jihaddan oʻn ikki guruhga ajratib talqin etadi. Tadqiqotlarda berilgan maʼlumotlarni umumlashirilgan holda, qadimgi turkiy til taraqqiyotining asosiy bosqichlarida keng isteʼmolda boʻlgan soʻzlarni quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratish mumkin : 1. Joy nomlari; 2.Etnik nomlar (urugʻ va qabila nomlari); 3. Kishi ismlari; 4. Gidrotoponimlar (daryo va koʻllar nomi); 5. Zoonimlar (hayvon va parranda nomlari) quruqlik va suv hayvonlari nomlari kabi guruhlarga boʻlgan. Turkiy tillardagi “zookomponentli frazeologik birliklar jismoniy sifat, tashqi koʻrinish, xarakter belgilari, intellekt, inson faoliyati kabilarni aks ettiradi”. Ot, tuya, qoʻy, mushuk, it, sigir kabi hayvonlarning xonakilashtirilishi turkiy xalqlar leksikasida ijobiy maʼno belgilarini oʻzida aks ettiruvchi frazeologik birliklarning ifoda va mazmun jihatidan boyishida yanada muhim bir omil boʻldi. Oʻzbekiston diyorida Yilqichilik anʼanalari va madaniyati minglab yillar bilan oʻlchanadi. Oʻzbeklar avlodi qadimdan otdan tushmagan. Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Mirzo Boburlar umri "ot usti"da oʻtgan.

Yilqichilik – chorvachilikning kattagina bir tarmogʻi. Boshqa xalqlar singari oʻzbek xalqi ham qadimdan yilqichilikni maxsus kasb etib kelgan. Natijada oʻzbek tili da yilqi boquvchilar, otlarni parvarish qiluvchilar, ularni oʻrgatuvchilar, ot bilan savd o qiluvchilar, ot abzallarini yasovchilarni oʻziga xos atamallari paydo boʻlgan. Gipologik (gippologiya – grek.hippos – ot+logiya, yaʼni ot haqidagi fan) terminologiyaning qarab chiqilayotgan tematik gruppasida asli oʻzbek (umumturkiy) qatlam mavjudki, bu yilqichilikka oid terminlarning qadimdan mavjud boʻlganligini

tasdiqlaydi. Xalq dostonlarida koʻpgina zoonimlar bilan bir qatorda ot nomlari ham anchagina miqdorda uchraydi. Xalq dostonlarida otlarning oʻttizdan ortiq turlari uchraydi.

Bugungi kunda tilshunoslikning barcha jabhalarida yangilik va oʻzgarishlar mavjud. Yilqichilikka oid terminlarning oʻrni va ahamiyati borasida ham ilmiy va dunyoviy qarashlar mavjud. Yilqichilik - chorvachilikning yirik bir tarmogʻi hisoblanadi. Ushbu soha otlarni urchitish, koʻpaytirish, zotini takomillashtirish va naslchilik ishlari bilan shugʻullanadi. Yilqichilik ishchi hayvon tariqasida arzon, samarali energiya manbaidir. Yilqichilik Osiyo va Yevropada mil. av. 4-ming yillikda paydo boʻlgan. Koʻhna Yilqichilik markazlaridan biri, shubhasiz, Oʻrta Osiyo kengliklari hisoblanadi. Otlar mil. av. 2-ming yillikda Oʻrta Osiyodan Kichik Osiyoga, undan Afrikaga tarqalgan. Amerikaga otlar yevropaliklar tomonidan XVI asrda, Avstraliyaga XVII asrda keltirilgan. Otlar qoʻlga oʻrgatilganidan va xonakilashtirilganidan keyin insonning koʻpgina ishlarni bajarishda doimiy yordamchisiga aylandi, armiyada alohida otlar qoʻshinlar tuzildi. Ayrim xalqlarda yilqichilik oziq-ovqat mahsulotlari — goʻsht va sut olinadigan xoʻjalik tarmogʻi boʻlib qoldi. Qad. Sharqning Movarounnahr hududi argʻumoqlari oʻzining takrorlanmas, xoʻjalik uchun foydali biologik xususiyatlari bilan nom taratgan dongdor jonivorlar safidan haqli ravishda tarixda oʻz oʻrniga ega. Tarixda bundan qariyb 2000-2500 yillar avval ham yurtimiz hududida mavjud boʻlgan "oʻynoqli dovon otlari" oʻzlarining chiroyli tana tuzilishi, chopqirligi va jangdagi chaqqonliklari bilan juda koʻplab millatlar tilida doston boʻlgan. Buning isboti sifatida qadimgi Xitoy afsonasidan "Bu otlarga minib, oʻlim bilmas mamlakatlarga yetib olsa boʻladi" jumlasini keltirib oʻtish mumkin. Oʻzbek xalq dostonlari "Alpomish" va "Goʻroʻgʻli"dagi Boychibor va Gʻirotlar obrazlari bunga misoldir.

Oʻzbekiston diyorida yilqichilik anʼanalari va madaniyati minglab yillar bilan oʻlchanadi. Oʻzbeklar avlodi qadimdan otdan tushmagan. Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Mirzo Boburlar umri "ot usti"da oʻtgan. Yilqichilik – chorvachilikning kattagina bir tarmogʻi sanaladi. Boshqa xalqlar singari oʻzbek xalqi ham qadimdan yilqichilikni maxsus kasb etib kelgan. Natijada oʻzbek tilida yilqi boquvchilar, otlarni parvarish qiluvchilar, ularni oʻrgatuvchilar, ot bilan savdo qiluvchilar, ot abzallarini yasovchilarning oʻziga xos atamallari paydo boʻlgan. Gipologik (gippologiya – grek. hippos – ot+logiya, yaʼni ot haqidagi fan) terminologiyaning qarab chiqilayotgan tematik gruppasida asli oʻzbek (umumturkiy) qatlam mavjudki, bu yilqichilikka oid terminlarning qadimdan mavjud boʻlganligini tasdiqlaydi. Xalq dostonlarida koʻpgina zoonimlar bilan bir qatorda ot nomlari ham anchagina miqdorda uchraydi. Xalq dostonlarida otlarning oʻttizdan ortiq turlari uchraydi. Bu nomlar oʻzining leksik-semantik xususiyatlariga semantik xususiyatlariga koʻra otlarning quyidagi belgilarini ifodalashga xizmat qiladi.

1.1. Otlarning jismoniy qobiliyatiga koʻra tasnifi:

a) Chopqir va chaqqon zotdor otlar: argʻumoq (20, III), aspi, tozi (53, III), arabi ot (243, III), bedov ot (20, III), churra bedov (332, III), beli doʻng ot (122, III), duldul ot (22, III), yugurik ot (67, III), soʻpoq ot (264, III), toʻriq ot (158, III), tulpor ot (233, III);

b) Zoti past, yaroqsiz otlar: yobi ot (280, III), partial ot (39, III), choʻmmoq ot (351, III), choʻntoq ot (242, III), choʻbir ot (265, III).

Jismoniy qobiliyatiga koʻra farqlanuvchi bu ot turlarini ajralishiga quyidagi soʻzlar asos ajralishiga qoʻyidagi soʻzlar asos boʻlib xizmat qiladi:

1. Tozi - manbalarda qayd etilishicha, tozi soʻzi arab xalqiga nisbatan ishlatilgan. Shuningdek, qadimgi turkiy manbalarda tozi terisi yoʻl-yoʻl, ola-bula otlarga nisbatan ham qoʻllangan. Masalan, Mahmud Qoshgʻariyning "Devonu lugʻatit turk"asarida "taz at" ana shunday izohlangan: taz at tafarchi boʻlmas - terisi yoʻl-yoʻl olacha ot yuk tashiydigan boʻlmaydi. Chunki uning tirnogʻi yomondir. «Oʻzbek tilining izohli lugʻati»da tozi - arabcha chopagʻon ov iti; uchqur arabiy ot; chopqir ot, tulpor maʼnolarida izohlangan. Nazarimda, bu otlarning nomlanishi Mahmud Qoshgʻariy qayd etib oʻtganidek, ot terisidagi belgi asos boʻlib xizmat qilgan.

2. Arabi, bedov - tarixda ajdodlarimiz tomonidan arab zotli otlarga alohida e'tibor berilgan. Dostonlarda uchraydigan bedov - arabcha, cho'lda yashovchi sahroyi ma'nosidagi badaviy so'zi bilan bog'liq bo'lib, mazkur so'zning ma'no ko'chishi natijasida arab oti, chopqir, uchqur singari sifatlarga ega bo'lgan ot ma'nosi yuzaga kelgan. O'zbek tilining izohli lug'ati»da bedav (forscha) - yugurik, uchqur yoki arabcha sahroyi ot ma'nolarida izohlangan. Dostonlarda chopqir arabi otlarni tavsiflashda churra so'zi ham ishlatiladi. Churra so'zi Radlovning qayd etishicha, turkiy tillarda mehnatkash ma'nosini ifodalaydi. Shunday qilib, churra bedov – chopqir, epchil, mehnatkash zotdor ot ma'nolaririni ifoda etadi.

3. Otlarning ijobiy xususiyatlarini ko'rsatilishida beli do'ng epiteti ham ishlatiladi. Bu epitetni yuzaga kelishida klassik manbalarda qo'llangan dol so'zi (dol - arab alibosidagi ۛ ni ifodalovchi harf) asos bo'lib xizmat qilgan. Qiyoslang: M.Qoshg'ariyda shunday izohlangan: jugruk at – yugruk ot. Poygada o'zib ketadigan chopqir ot.

4. Zoti past, chopish uchun yaroqsiz bo'lgan otlar uchun emotsional bo'yog'iga ko'ra salbiy so'zlar sifatlovchi (epitet) sifatida qo'llaniladi. Masalan, yobi so'zi qadimgi turkiy manbalarda va turkiy tillarda oriq, makkor, jahldor, yaramas, och hayvonlarga va shaxslarga nisbatan ham ishlatilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida (forscha) – yuk tashuvchi, nasli past, xashaki ot ma'nosida ma'nosida izohlangan.

5. G'o'nan - ikki yoshli toy; mo'g'ul tilida uch yoshli ho'kiz (g'o'//du) yoki har qanday erkak hayvon. O'zbek tilining izohli lug'atida g'o'non – ikki yashar ayg'ir yoki qo'chqor tarzida izohlangan.

6. Do'nan - to'rt yoshli ot, shuningdek, to'rt yoshga kirgan har qanday uy hayvoni. O'zbek tilining izohli lug'ati do'non (mo'g'ulcha – to'rt yoshli) 1.Uch yoshga to'lib, to'rt yoshga o'tgan ot yoki tuya. 2. Ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'ygan yoki echki tarzida izohlangan.

7. Qulun - bir bahorni ko'rgan toycha. Shuningdek, bir yoshga kirgan ot. Bulardan tashqari to'bichoq, toy, toyloq singari so'zlar ham otlarning yoshiga ishora sifatida qo'llaniladi. Masalan, O'TELda toy – otning ikki yashardan kichik bolasi tarzida qo'llangan bo'lsa, qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli tay tarzida talaffuz qilinganligi «Devon»dan ma'lum. O'zbek adabiyotida yilqichilik bilan bog'liq sinchi termini ham juda ko'p qo'llanilishi sir emas. Sinchi - otlarning (hayvonlarning) zotini, fe'l-atvorini yaxshi biladigan kishilarga nisbatan qo'llaniladi. “Alpomish” dostonida otlarni ta'rifini, tavsifini aniqlaydigan Ko'sa sinchi, “Go'ro'g'li” dostonida To'liboy sinchi, “Ravshan” dostonida Tersak sinchi nomlari keltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilida o'z aksini topgan ot nomlari va boshqa yilqichilik bilan bog'liq terminlarning ko'pchiligi tilimiz tarixining eng qadimgi davrlaridan boshlab asrimiz boshlariga qadar bo'lgan katta tarixiy davrda faol iste'mol qilib kelingan lug'aviy birliklarni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan boshqa leksik birliklar bilan bir qatorda bilan bir qatorda, yilqichilik terminlarining leksik-semantik tahlili tarixiy leksikografiya, leksikologiya, til tarixi, etimologiya singari sohalarni chuqur o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek milliy ensiklopediya Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. 198-b
2. <https://uz.wikidea.ru/wiki/hippology>
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. jild. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 133-b
4. Древний тюркских словарь. – Ленинград: Наука, 1969
5. Mahmud Koshg'ariy.Devonu lug'otit turk. Uch tomlik.III tom.Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. – Toshkent: O'zFA, 1963. 163-b
6. Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. 78-105-b
7. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. – Санктпетербург, 1905.219-с
8. Mannop Egamberdiyev. Sariq ajdar hamlasi: Tarixiy roman; (Rus tilidan tarjima). –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1988-yil.